

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
XORIJIY TILLAR FAKULTETI
NEMIS TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

KO'CHAROVA MAHFUZA ESHONQULOVNA

5120100- Filologiya va tillarni o'qitish (Nemis tili)

Bakalavr darajasini olish uchun

“SODDA GAP SHAKLINING UYUSHIQ BO'LAKLARI YORDAMIDA
KENGAYISHI”
mavzuida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: o'qit.N.Mahmudova

”Himoyaga tavsiya etilsin”

Xorijiy tillar fakulteti

dekani dots.Y.Hamrayeva _____

” _____ ” _____ 2016 yil

QARSHI-2016

MUNDARIJA

I. KIRISH.....	3
II. ASOSIY QISM	
1. Bob.	
1.1. Eganing uyushib kelishi.....	7
1.2. Kesimning uyushib kelishi.....	21
2. Bob.	
2.1. Aniqlovchining uyushib kelishi.....	30
2.2. To'diruvchining uyushib kelishi.....	35
2.3. Holning uyushib kelishi.....	40
III. Xulosa.....	49
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	51

KIRISH

Vatnimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir.¹

Ijtimoiy hayotning barcha sohalarida boshlangan tub islohatlar ta'lim sohasini ham chetlab o'tgani yo'q, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy vazifalari ham mamlakatimizda xorijiy tillarni mukammal biladigan yuqori malakali, sifatli kadrlar tayyorlashga qaratildi. "Dasturdan ko'zlangan asosiy maqsad – oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o'quv dasturlarinni takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondashuvlarni hayotga tatbiq etishdan iborat"².

O'zbekistonning istiqlool yillarida ta'lim sohasida erishilgan natijalar, xususan, mamlakatimizda maktab ta'limini yetti tilda olib borilishi, 9+3 sxemasi noyob 12 yillik umumiy bepul ta'lim tizimining joriy etilishi, respublikamizning har bir oliy o'quv yurtida optik-tolali aloqa liniyalari asosida qurilgan yagona Ziyo Net axborot-ta'lim tarmog'iga ulangan axborot resurs markazlarining tashkil etilgani o'tgan "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilari tomonidan ham alohida e'tirof etildi³.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Sodda gapning sintaktik shakli turli xil morfologik vositalar ta'sirida kengayib, mukammal tus olishi mumkin. Ana shunday vositalardan biri gapning uyushiq bo'laklaridir. Gapning uyushiq bo'laklari, albatta, boshqa morfologik vositalardan sintaktik vazifalarga ko'ra farq

¹ I.A.Karimov Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. 2 nashr Toshkent "Ma'naviyat" 2011

² Karimov I.A. Barcha va reja dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Prezidentimiz I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi // ma'rifat, 2011 yil 22 yanvar.

³ "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi konferensiya materilallari // Ma'rifat, 2012 yil 22 fevral.

qiladi. Uyushiq bo'laklar son jihatidan qancha bo'lsa ham, bir xil savolga javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifani bajaradi. Ammo, shunday bo'lsada, gapning bosh bo'laklari yoki ikkinchi darajali bo'laklar sintaktik sathining kengayishiga muqarrar ravishda gap tuzilishining murakkablashuviga olib keladi. Murakkablashtiruvchi har qanday so'z ham shu gapning bo'lagi vazifasida keladi.

Ko'rinadiki, gap bo'laklari sintaktik maydonining kengaytirilishi hamda uyushiq bo'lak vazifasida keladigan morfologik vositalar ta'sir doirasini kengaytirishi orqali bir paytning o'zida gapning sintaktik shakli murakkablashuviga olib keladi.

Bu mavzuni o'rganishda men ilmiy adabiyotlarni o'rganar ekanman, uyushiq bo'laklarning aynan sodda gap shaklida o'rganilishi ancha oqsoq. Boshqacha aytganda bu sohada amaliy ishlar keng ko'lamda boshlangani yo'q.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarni hisobga olib bitiruv malakaviy ishi uchun tanlangan mavzu bugungi tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga bag'ishlangan deya olamiz.

Tadqiqotning metodologik asosi. Bitiruv malakaviy ishini yozishda asosan tilshunoslikning tavsifiy usullaridan foydalanildi. Ba'zi o'rinlarda taqqoslash usuli ham qo'llanildi. Shuni ham aytib o'tish kerakki, sodda gap shaklining sintaktik kengayishini batafsil izohlab berish uchun metodologik asos bo'luvchi ilmiy adabiyotlar kam. Shu bois ishni yozish jarayonida professor N.Turniyozovning "Funksional sintaksisga kirish", "Struktur sintaksis asoslari", "O'zbek tili struktural sintaksisga kirish" kabi asarlaridan foydalanildi. Faktik material sifatida, O. I. Moskalskayaning "Deutsche Grammatik der Gegenwartssprache", E. I. Shendelsning "Deutsche Grammatik", S.Mirsoatovning "Nemis tili grammatikasi" va boshqa adabiyotlardan ham foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishda o'rganilayotgan mavzu faqat o'zbek tilshunosligida balki nemis tili sintaksisi ustida olib borilgan O'zbekistondagi ishlar ichida ham yangi deb atay olaman.

- Sodda gap shakli sintaktik sathining uyushiq bo'laklar orqali kengayishini o'raginilishi mumkin ekanligiga asos solindi.

- Sodda gap shakli sintaktik kengayishi bosh va ikkinchi darajali gap bo'laklarining uyushib kelishi ta'siri yoritildi.

Ishning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda o'rganilgan muammo ilmiy-nazariy ahamiyati sodda gap shaklining kengayishi sintaktik talqin etilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, u mazkur sohada mavjud bo'lgan ammo, hali to'la o'rganilmagan bir muncha jumboqli masalalarning hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning ahamiyati o'quv jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Bishqacha aytganda, undan amaliy grammatika va nazariy grammatika fanlarida, kurs ishlarida talabalar bema'lol foydalanishlari mumkin.

Eng avvalo gap va uning ifodalanishi haqida so'z borar ekan, gap ma'lum bir fikrni ifodalaydigan bir so'z yoki bir-biriga bog'langan bir necha so'zlardan iborat bo'lib, nutqning bir qismini tashkil qiladi. Til, nutq orqali kishilar o'z fikrlarini, maqsadlarini, his-hayajonlarini ifodalaydilar. Shuning uchun ham til kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni yuzaga keltiruvchi qurol vazifasini o'taydi.

I Bob.

1.1. Eganing uyushib kelishi (Die gleichartigen Substantive)

Fikr turlicha ifodalanadi. Fikr sodda yoki qo'shma gaplar orqali, darak, so'roq, buyruq, undov gaplar, ikki sostavli yoki bir sostavli gaplar, to'liq yoki to'liqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Bu hol fikrning xarakteriga, ma'lum maqsad yoki niyatga qarab belgilanadi. Gapning asosiy belgilari – unda nisbiy fikr tugalligi va predikativlikning mavjud bo'lishi, grammatik jihatdan ma'lum qonun-qoidalar asosida shakllanishi, o'ziga xos intonatsiyaga ega bo'lishidir. Gapning bu xususiyatlari garchi ko'pchilik tillar uchun umumiy bo'lsa-da, bu belgilarning turli tillarda namoyon bo'lishi, ularning ahamiyati va o'rni turlichadir.

Har bir gapda ma'lum fikr, maqsad yoki his-hayajon ifodalanadi, aks holda bu gap emas, balki so'z birikmasi bo'lib qoladi. Masalan:

Salima keldi.

Salimaning kitobi.

Salima ist gekommen.

Salimas Buch.

Birinchi misolda har ikki tilda ham gap hisoblanadi, chunki u ega-kesimdan tuzilgan. Ikkinchi misolda esa har ikki tilda ham so'z birikmasi hisoblanadi. Ma'lum maqsad yoki his-hayajon sodda va qo'shma gap shaklida ifodalanishi mumkin.

Gap bo'lishi uchun, albatta, ega bilan shaxs va sonda moslashgan kesim bo'lishi shart emas, ya'ni pridekativlik mavjud bo'lgan konstruktsiyalar, hatto, ayrim so'zlar ham gap bo'la oladi. Masalan, bir sostavli nominativ gap:

Kuz

Herbst

Gapning o'ziga xos belgilaridan biri maxsus intonatsiyaning bo'lishidir. Har bir gap intonatsiya jihatidan shakllangan bo'lib, gapning boshlanishi va tugallanishi uning intonatsiyasidan sezilib turadi. Barcha tillarda bo'lganidek, bu

qonuniyat o'zbek tili uchun ham xosdir. Ammo bu sohada o'zbek tili gap strukturasi o'ziga xoslik ham bor.

Gap, grammatik strukturasi ko'ra, o'ziga xos konstruksiyani tashkil etadi. Ikki sostavli gaplar konstruksiyasini asosini bosh bo'laklar (ega va kesim) tashkil etib, unda ega gapda bosh kelishik shaklidagi har qanday so'z ham ega bo'lavermaydi. Bosh kelishikdagi so'z – kesim, ikkinchi darajali bo'lak, undalma bo'lib kelishi ham mumkin. Bildirilayotgan fikr kimga yoki nimaga taaaluqli ekanligini anglatadigan bo'lagigina ega bo'la oladi. Kesim ega haqida tasdiq, inkor yoki so'roqni bildiruvchi gap bo'lagidir.

O'zbek tilida kesim shaklan turlicha bo'ladi, hatto ma'lum kelishik shaklidagi ot ham kesim funksiyasida kela oladi (kitob - senga). Kesim funksiyasida so'z birikmalari yoki ayrim frazeologik birikmalar va gaplar ham kelishi mumkin.

Nemis tilida odatda ega bilan kesim – bir-biri bilan shaxs va sonda moslashadi. Ammo o'zbek tilida ega bilan kesim shaxs va sonda moslashmasligi ham mumkin. Masalan:

Die Gebäude sind gebaut. – Uylar qurildi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari fikrni to'laroq va mukammalroq ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular faqat bosh bo'laklargagina bog'lanib, ularni izohlab, to'ldiribgina qolmay, balki bir-birlariga bog'lanishi, bir-birining ma'nosini aniqlash, to'ldirishi mumkin. Ikkinchi darajali bo'lak birikmali ega va birikmali kesimlarda gapning asosiy tuzilishiga kiradi, ularsiz fikr to'la ifodalanmaydi, gap tuzilmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, gapning ma'lum fikr, maqsadni ifoda etishi, uning so'z, so'z birikmalaridan farq qilishi, ikki sostavli va bir sostavli gapning mavjud bo'lishi, maqsadga ko'ra gaplarning turlarga bo'linishi, gapda ma'no tugalligining mavjudligi, gapning kommunikativ funksiyasiga ega bo'lishi, uning grammatik tuzilishiga ko'ra maxsus konstruksiyalarga ega bo'lishi kabi gapning belgi va xususiyatlari nemis va o'zbek tillarida mavjuddir. Ammo gapning belgi va xususiyatlari ba'zi o'rinlarda mos tushsa, ba'zan bir-biridan farq qiladi – ayniqsa gap konstruksiyalarida, so'z tartibida va hakoza. Masalan:

Bu ish bajarilsin! (o'zbek tilida II shaxsga qaratilgan)

Diese Arbeit soll gemacht werden! (nemis tilida III shaxsga qaratilgan)

Sodda gap tuzilish asosining tarkibiga ko'ra, ikki sostavli gaplar va bir sostavli gaplarga bo'linadi. Ikki sostavli gaplarning (die zweitgliedrigen Sätze) tuzilish asosi bosh bo'laklarning har ikkisidan iborat bo'ladi. Ikkinchi darajali bo'laklar ega yoki kesim bilan birgalikda ega yoki kesim sostavini hosil qiladi:

Du siehst nicht schlecht aus. Du bist ein guter Arbeiter.

O'zbek tilida ham ikki sostavli gapning tuzilish asosi bosh bo'laklarning har ikkisidan iborat bo'ladi:

Biz tinchlik uchun kurashayotirmiz.

Bir sostavli gapning (die eingliedrigen Sätze) eng sodda ko'rinishi bir so'zdan iborat bo'lgan gapdir. Masalan:

Aufstehen! Zurück!

Bu ayrim so'z predikativlikka, gapga xos bo'lgan intonatsion tugallikka egadir. Bir sostavli gap ham bir necha bo'lakli bo'lishi mumkin. Masalan:

Ein gutes Stück. Schönes Denkmal!

Bir sostavli gapda bosh bo'laklarning biri tushib qolgan emas, balki butun gapning o'zi bir sostavdan iborat. Bir sostavli gapda bosh bo'laklardan biri saqlangan bo'ladi. Ular ega yoki kesim sostavidangina tashkil topgan bo'ladi. Egadan yoki ega sostavidan tashkil topgan gaplarda ega qatnashmaydi. Bir sostavli gaplar fe'l yoki boshqa so'z turkumlari bilan ifoda etiladi.

Nemis tilida gap ikki asosiy xususiyatga ega bo'lib, shu xususiyatlari bilan o'zbek tilidan farq qiladi:

I - Xususiyat. Nemis tilidagi gaplarda bosh bo'laklarning mavjud bo'lishi, ya'ni gapning ikki sostavli bo'lishidir. (Die Zweigliedrigkeit des Satzes). Bunday ikki sostavli gaplar o'zbek tilida bir sostavli gaplar tarzida olinadi:

Ich setze – O'tiribman.

Es ist spät – Kech.

II – Xususiyat. Nemis tilida doim fe'l kesim bilan ifodalanadi. Hatto ot-kesim sostavida ham bog'lama sifatida fe'l (yordamchi fe'l) ishlatiladi. Bu xususiyatni kesimning fe'lliligi deyiladi (Der verbale Charakter des deutschen Satzes).

Ikki sostavli gaplarda yordamchi fe'lning bog'lama sifatida ishlatilishi faqat nemis tili uchungina xos xususiyatdir.

Er ist Student – U talaba.

Ich bin stark – Men kuchliman.

Gaplar tuzilish jihatidan nemis tilida ham o'zbek tilida ham ikki asosiy turga bo'linadi: 1) sodda gaplar; 2) qo'shma gaplar;

Sodda gap (Der einfache Satz). Tuzilish va intonatsiya jihatidan shakllangan, nisbiy tugal fikr ifodsalaydigan, ayrim gaplar (predikativ qo'shilmalarga) bo'linmaydigan sintaktik birlik sodda gap deyiladi.

Sodda gaplar asosan ega va kesimdan tashkil topadi: shart-sharoit so'zlashiladi. Mahmud to'xtadi (A.Qodiriy). Sodda gapning bunday turi yig'iq sodda gap (der erweiterter einfacher Satz) deb yuritiladi. Ammo sodda gaplarda ko'pincha ega va kesimdan boshqa bo'laklar ham keladi:

Yigit boshini ko'tardi. U supaga yaqinlashdi. (Oybek) kabi gaplar bosh va ikkinchi darajali bo'laklardan tashkil topgan bo'lib, ularni yoyiq sodda gap (erweiterter einfacher Satz) deb yuritiladi. Misollar:

Sie wachten auf. Der Keller zitterte. Die Ohren dröhnten. (E.M.Remarque)

Qo'shma gap (Der zusammengesetzte Satz). Tuzilish jihatidan sodda gapga o'xshash qismlardan tashkil topgan, intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlikka ega bo'lgan gap qo'shma gap deyiladi.

Qo'shma gap tarkibida sodda gaplar o'zaro teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki bog'lovchilarsiz ohang yordamida bog'lanadi.

Die Lesefähigkeit wird entwickelt, die Sprachbeherrschung wird verbessert. Er ist krank, deshalb fährt er zur Kur. Der Ingenieur war viel im Ausland, (und) er lernte die Lebensbedingungen, in fremden Ländern kennen. Er ist entweder schon zur Arbeit gegangen, oder er ist noch zu Hause.

Uzoq qonli urush bormoqda, shaharlar yonmoqda, odamlar yovuz dushman bilan jon talashmoqda edilar. (S.Ahmad).

Nemis tilda keltirilgan misollardagi bosh gapning birinchisi bog'loivchisiz (Konjunktionslose) bog'langan qo'shma gap, qolgan gaplar bog'lovchili bog'langan (konjunktionale) qo'shma gaplar bo'lib, ularning har biri ikki gapdan tashkil topgan.

O'zbek tilida keltirilgan misollardagi qo'shma gap esa uch gapdan tashkil topgan.

Sodda gaplar ega, kesim yoki ega, kesim va ikkinchi darajali bo'laklardan tashkil topishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1) yig'iq sodda gap;

2) yoyiq sodda gap;

Yig'iq sodda gap (der einfache unerweiterte Satz) bosh bo'laklardan, ya'ni ega va kesimdan tuzilgan bo'ladi:

“Ich freu mich!” (O.Linder).

Wir sind am Ziel. Er ist fort. (T.Mann).

Die Evakuierung begann. (B.Apitz).

Oftob o'chdi.. (Said Ahmad).

U qaytdi. Tong otdi. Kun og'di! Isoq charchadi. (Yu. Shamsharov).

Er ist getan. Ich habe nicht gemeint. Wir sind besiegt worden. (H.Mann).

Zamira yozgan. U mehnat qilgan. U ketayotgan edi.

Yoyiq sodda gap (der einfache erweiterte Satz) sostavida bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklar aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol ham qatnashmadi. Bunday gaplarda ikkinchi darajali gap bo'laklardan bittasi, ikkitasi yoki har uch turi ishtirok etishi mumkin. Misollar:

Hans stieß ihn an. Das war eine ältere Stimme. Am Nachmittag kam Zwilling. (B.Apitz)

Auf dieser Weise sprach er an jedem Abend auf mindestens fünf Dörfern.

O'zbek tilida ham faqat ega va kesimdangina tashkil topgan gaplar yig'iq sodda gap deb yuritiladi. Masalan:

Bahor keldi. Gullar ochildi.

Sostavida bosh bo'laklardan tashqari ikkinchi darajali bo'laklarga ega bo'lgan gap yoyiq sodda gap deb yuritiladi.

Masalan: Oyoq maysazorga tikildi. Siz safarga ketayapsiz. Yo'lda odam uchramasdi.

Olimlarning taxmin qilishlaricha, yer yuzida 200 dan ortiq til mavjud. Bularning ko'pchiligi milliy tillar va xalqlar tillaridir. Milliy tillar o'zlarining tarqalish territoriyasi va ulardan foydalanuvchi aholining miqdori jihatidan bir xil emas. Ba'zi tillar juda katta territoriyalarda va ko'p sonli aholi orasida tarqalgan. Bunday tillar ingliz, fransuz, nemis, ispan va shu kabi tillar kiradi. Bu tillarda bir qancha mamlakatlardagi millatlar so'zlashadi. Xitoy, rus va hind tillarida ham ko'p sonli aholi so'zlashadi. Har bir til o'z grammatikasiga ega. Grammatika so'zlarning gapda o'zgarishi va birikishi haqidagi qoidalar to'plamidir. Grammatika ob'ektiv borliqdagi predmetlarni, voqealarni ifodalamaydi, balki predmet va voqealarning ifodasi bo'lgan so'z orasida nutq jarayonida vujudga keladigan umumiy munosabatlarni, bir so'z bilan ikkinchi so'zning bog'lanishini, ya'ni gaplarni ifodalaydi. Gap esa yuqorida aytib o'tganimizdek, ifoda maqsadiga ko'ra turlarga bo'linadi. Biz esa aynan sodda gaplarni o'z bitiruv malakaviy ishimizda, ularning sintaktik sathini kengayishini o'zbek va nemis tillari misollari orqali ko'rib, tadqiq qilmoqchimiz.

Sodda gap sintaktik shakli turli xil morfologik vositalar ta'sirida kengayishi, mukammal tus olishi mumkin. Ana shunday vositalardan biri gapning uyushiq bo'laklaridir.

Gapning uyushiq bo'laklari, albatta, boshqa morfologik vositalardan sintaktik vazifalariga ko'ra farq qiladi. Masalan gap tarkibida faol qo'llaniladigan oddiy aniqlovchi, to'ldiruvchi va hakoza, singari ikkinchi darajali bo'laklar yoki ega, kesim singari bosh bo'laklar mustaqil sintaktik vazifa bajarsa, uyushiq bo'laklar, son jihaidan qancha bo'lishidan qat'iy nazar, bir xil savolga javob bo'lib, bir xil sintaktik vazifa bajaradi. Ammo shunday bo'lsada, gapning bosh bo'laklari yoki ikkinchi darajali bo'laklari sintaktik sathining kengayishi muqarrar ravishda

gap tuzilishining murakkablashuviga olib keladi. Murakkablashtiruvchi har qanday soʻz ham shu gapning boʻlagi vazifasida keladi. Hatto kirish soʻz va birikmalar, kiritma gaplar, undalmalar ham gapning uchunchi darajali boʻlaklari sanaladi¹.

Gapning uyushiq boʻlaklariga xos boʻlgan umumiy belgi shundan iboratki, har bir uyushiq boʻlak alohida urgʻu bilan aytiladi. Bundan tashqari, uyushiq boʻlaklar gapning boshqa boʻlaklarini ergashtirib kelishi yoki ularga tobe holda kelishi ham mumkin. Bunda, albatta, bosh boʻlaklarning yoki ikkinchi darajali boʻlaklarning uyushib kelishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun quyida sodda gap shaklining kengayishi masalasini har bir gap boʻlagi asosida oʻrganamiz.

Maʼlumki, ega gapning eng asosiy grammatik belgilaridan biri hisoblanadi. Uning ishtirokisiz aksariyat hollarda gap tuzilmaydi. Hatto shaxsi umumlashgan, shaxsi nomaʼlum deb ataluvchi gaplarda ham eganing mavjudligi, kesimning nimagadir tayanib faoliyat koʻrsatayotganligi fikran sezilib turadi².

Baʼzi paytlarda gapning sintaktik shaklini faqat uyushgan egalar tashkil etadi. Bunday gaplarda kesim real tarzda ishtirok etmaydi:

Yerlarda yumalab bolaning chinqirigʻi, yiqila-yiqila yugurgan ayollarning telba faryodi, xarobazor orasida tirmalgan yaradorlar va mayiblarning ingrashi...(Oybek. Quyosh qoraymas, 29).

Koʻrinadiki, berilgan misollarda gapning kesimi ishtirok etmayotgan boʻlsa-da, uning sintaktik shakli bir necha eganing uyushib kelishi natijasida kengaygan. Albatta, bu singari gaplarni kesimsiz gaplar deb boʻlmaydi. Chunki tushib qolgan kesimni istalgan paytda tiklash mumkin. Ammo bunga sira zarurat sezilmaydi. Tushib qolgan kesim gapning umumiy mazmunidan fikran anglashilib turadi.

1. Hinter dem Vogel sieht man weite Felder und zwei fließende Flüße.
2. Und Adler und Falken und Habichte schweben.
3. Ausgedehnte Kanalsysteme wie der Amu-Buchoro-Kanal, der Kanal der Südlichen Golodnaja-Steppe und der Große Fergana-Kanal haben den Wasserhaushalt des Gebiets stark verändert.

¹ Qarang: Сайфуллаев А.П. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Тошкент, 1984.

² Qarang: Gʻulomov A. Asqarov M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili sintaksis. – Toshkent, 1987 yil. 140 bet.

Yuqoridagi misollarda gapning uyushib kelishi birinchi misolda und bog'lovchisi, ikkinchi misolda esa *wie* bog'lovchisi ko'magida ro'y bermoqda.

Uyushiq egalar soni nechta bo'lishidan qat'iy nazar, gap kesimi ularning har biriga bir xilda ergashadi. Masalan, berilgan misollarning ikkinchisida *wie* bog'lovchisi bir yo'la der Amu-Buchoro-Kanal, der Kanal der Südlichen Golodnaja-Steppe und der Große Fergana-Kanal, Kanalsysteme singari to'rtta turli nomlardagi egalarning uyushib kelib, gapning *veränderten* tarzidagi kesim bir xilda ergashmoqda. Lekin (Ausdehente) Kanalsysteme egaga qo'shilib kelgan aniqlovchi gapning umumiy sintaktik sathini ham kengaytirib, mukammallashtirib kelmoqda.

Nemis tilining gap tuzilishida kesim bo'lmagan gaplarni kam o'rganamiz. Hammaga ma'lumki, sodda gaplarda so'z tartibi ega + keism + ikkinchi darajali gap bo'laklari yoki ikkinchi darajali gap bo'laklari + kesim + ega kabi shakllanadi. Ammo badiiy adabiyotda va mazmda mustasno tarzda kesimsiz gaplar keltirliadi. Ammo bu gaplardagi kesimning real tarzda ishtirok etmasada, uni istalgan vaqtda tiklash mimkin. Tushib qolgan kesim gapning umumiy mazmunidan kesim fikran anglashilib turadi:

Selig durch die Liebe Götter – durch die Liebe Menschen Göttern gleich.
(F.Schiller. Gedichte. 56).

Yuqoridagilardan tashqari, uyushiq gaplar uyushiq kesimlarni ham ergashtirib kelishi mimkin. Bu vaziyatda gapning sintaktik sathi yanada kengayadi. Ammo uyushiq kesim uyushiq egalarning har biriga teng xizmat qiladi¹:

...bog', devorlar bu yerdagi hamma narsa kichrayib, eskirib qolganday
(S.Nurov. Maysalarni ayoz urmaydi, 149).

Bu xildagi gaplarda kesim albatta, tugal fikr anglatayotgan so'nggi so'zlar orqali belgilanadi. Biroq ravishdosh shaklidagi oldingi (kichrayib) so'zi ham ikkinchi darajali kesim vazifasini bajarmoqda. V.V.Reshetovning fikriga ko'ra

¹ Qiyoslang: Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Ташкент 1965. – стр. 225.

bunday gaplarni alohida qismlarga bo'linsa, ular tarkibida ikki yoki undan ortiq kesim ishtirok etayotganligi aniq seziladi¹. Qiyoslang:

1. ...bog', devorlar, bu yerdagi hamma narsa kichrayib qolganday.
2. ...bog', devorlar, bu yerdagi hamma narsa eskirib qolganday.

Ana shundan kelib chiqib, gapning uyushiq bo'laklari, faqatgina u sintaktik shaklini kengaytiruvchi vositalar emas, balki til materiallarini tejash uchun qo'laniladigan vositalar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Chunki uyushiq holda kelayotgan har bir ega uchun kesim alohida takrorlanmaydi va aksincha, uyushiq holatdagi har bir kesim uchun ham ega qayta-qayta takrorlanmaydi. Boshqacha aytganda, gapning uyushiq bo'laklari o'zlari ishtirok etayotgan gapning sintaktik sathini kengaytirib kelsa-da, bir paytning o'zida til materiallarini tejash uchun ham samarali xizmat qiladi. Quyida ana shu fikr isboti uchun bir necha misol ketiraylik:

1. Soy bo'yida majnuntollar panasida bir yigit bilan qiz shivirlashib gaplashmoqda edi. (P.Qodirov. Yulduzli tunlar, 5)

2. Prinafas akaning og'ir ahvolga tushganiga achinib, Ibrohim ota bilan Polvonboy uning uyiga keldilar (J.Sharipov. Xorazm, 96)

3. To'ng'izlarning besaranjom xur-xuri, o'rdak va qashqaldoqlarning g'aq-g'uqi olamni tutgan (S.Ahmad. Ufq, 91)

4. Ali tajang ham, bel, miltiq va boshqa jangovar buyumlarni eplay olmasdan qiynaluvchi bahaybat Asqar polvon ham kelib o'zbekcha cho'qqayishdi (Oybek. Quyosh qoraymas, 34).

1. Sie besorgte sich eine Eintrittskarte für Studenten und bezahlte dafür.

2. Die Hausfrau nimmt die Wäsche aus der Waschmaschine heraus und hängt auf.

Demak, ega gapning bosh bo'laklaridan hisoblanadi. Ega gapda hokim bo'lak sanalib, u kesimdan anglashilgan belgi, harakat, holatning kimga yoki nimaga tegishli ekanligini anglatib, wer? (kim?), was? (nima?) so'roqlariga javob bo'ladi. Ega gapdagi fikrni, hukmni o'ziga qaratuvchi predmet nomidir. Bu predmet

¹ Qarang: o'sha asar, o'sha bet.

harakatni bajaruvchi yoki qabul qiliuvchi shaxsdan iborat bo'ladi. Ega vazifasini bajarib kelayotgan so'z doim predmetni anglatishi shart emas.

U ba'zan harakatni nomini bildirishi ham mumkin. Ega qanday so'z turkumi bilan ifodalanmasin va qanday mazmuni ifodalamasin, u hamma vaqt bosh kelishikda bo'ladi. Misollar:

Rauchen ist schädlich. Turnen ist nützlich.

Wer gab ihm recht? Die Stimme versagte ihm – wer versagte ihm? (H.Mann)

Besh o'ning yarmi. (G'.G'ulom) Dushmanning biri ham xatar. (maqol)

O'yin-kulgu yarim kechgacha davom etdi. (A.Qahhor)

Ega quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi. (Die Ausdrucksmittel des Subjekts).

1. Ot bilan:

Der Bauer sagte gar nichts. Die Hälfte seiner Zeit war nun mehr ihnen gewidmet. (H.Kunze).

2. otlashgan sifat bilan:

Grün und Gelb blitzte das Silber rinnenden und ruhenden Wassers. (F.Fühmann) der Alte hörte ihn mit den Traktoren sprechen. Die Fleißigen und Klugen gehören unbedingt in den Stab. (E.Neutsch)

3. Otlashgan sifatdoshlar bilan:

Hier sagten bürgerlich Gekleideten zueinander. (H.Mann)

Frisch gewagt ist halb gewonnen (Sprichwort).

Augeschoben heißt nicht Aufgehoben (Sprichwort).

4. Otlashgan son bilan:

Die zweite lag mehr landeinwärts, unterhalb der Düne. (W.Berdel).

Dreimal im Guten, das vierte Mal Ruten. (Sprichwort).

5. Olmosh bilan:

“Alles bleibt beim alten!” stimmte der Vater der Mutter bei. (R.becher).

Sie mußten nicht und fürchteten es doch. (F.Ring).

Man drehte sich mit dem Rücken dem Wind zu. (R.Becher)

4. Infinitiv va infinitiv guruhlar bilan:

Haussegen ist besser als goldregen. Lieben und singen läßt sich nicht zwingen.

Borgen macht Sorgen. (Sprichwörter).

Die Granate gut (zu)werfen ist nicht leicht. Es ist nicht leicht, gut und weit die Granate zu werfen. (W.G.Barchett).

O'zbek tilida ham ega o'z xususiyatiga ko'ra, nemis tilidagi kabi so'z turkumlari orqali ifodalana oladi. Misollar:

1. ot bilan:

Mushuk hamon xurillaydi.

2. olmosh bilan:

U qo'llari bilan peshonasini ko'rsatdi. (Mirmuhsin).

3. son bilan:

Ikkovlari qotib-qotib kulishdi. (S.Ahmad)

4. sifatdosh bilan:

Sharof: "A!..." dediyu, tiliga boshqa so'z kelmadi. Qunduzning boshi ochiqligini bilib to'lqinlangan, hay ova latofatli ko'nglini zavqqa-shavqqa to'ldirgan edi. (Yu.Shamsharov0.

5. Infinitiv bilan:

6. Chekish – zararli.

7. sifat bilan:

Yaxshi yetar niyatga, yomon qolar uyatga. (maqol).

Ega turli turdagi turg'un va erkin birikmalar bilan ham ifodalanishi mumkin:

Uch og'ayni butun kun bo'yi yo'l yurib, bir joyda tunaydigan bo'lishdi.

(Folk).

Bir tutam qish kuni Gulnor uchun bitmas-tuganmas, uzoq ko'rindi. (Oybek).

"Og'iz ochish bundan kam bo'ladimi?" – dedi Afandi.

1.2. Kesimning uyushib kelishi

Gapning bosh bo'laklaridan ikkinchisi hisoblanuvchi kesim ham uyushib kelib, gapning sintaktik sathi kengayishi uchun sabab bo'ladi. Bu jarayonda uyushiq kesimlar bir egaga yoki uyushgan egalarga tobelanadi va o'ziga ikkinchi darajali bo'laklarni ham ergashtiradi¹.

Kesim gapning bosh bo'laklaridan biri bo'lib, u ega orqali ifodalangan shaxs, predmet va hodisaning harakatini, holatini bildiradi. Bunda belgi yoki hodisa tasdiq yoki inkor yo'li bilan anglashiladi. Kesim egaga nisbatan tobe bo'lak hisoblanadi. Nemis tilida kesim *was wird vom Subjekt ausgesagt? Was macht das Subjekt? Was ist das subjekt? Wie ist das Subjekt?* kabi so'roqlarga javob bo'lib keladi.

O'zbek tiliga esa kesim *nima qildi? nima qilayapti? nima qilmoqchi? qanday? U kim? U nima?* So'roqlariga javob bo'ladi. Masalan:

Er sendet ein Brief (harakat).

Ich stehe, ich ruhe (holat).

Du bist fleißig (belgi).

Der Zug bewegte sich immer noch nicht (inkor). (E.M.Remarque)

Uyushiq kesimlar ifodalanishi materilalariga kora ikki turga bo'linadi:

1. fe'l – uyushiq kesimlar;

2. ot – uyushiq kesimlar;

1. Oqshom baxmali tobora quyuqlashadi, sokinlikni kuchaytiradi, qo'riqlaydi.

(Yu.Shamsharov. Chiroq, 5).

2. O'ziyam juda yaxshi ko'radi-da u odamni! Xolbuki u kishi Qurbonga na qarindosh, na tengdosh. (Sh.Xolmirzayev. Qil ko'prik, 7)

Keltirilgan misollarning birinchisida uyushiq kesimlar quyuqlashadi, kuchaytiradi, qo'riqlaydi kabi so'zlar orqali ifodalanayotgan bo'lsa-da, ikkinchi misolda ot-uyushiq kesimlarning qarindosh va tengdosh so'zlari orqali

¹ Qarang: Hozirgi o'zbek adabiy tili. II qism. Toshkent. 1966, 176-bet.

ifodalanayotganini ko'ramiz. Har ikki mosolda ham kesimlar gapning sintaktik sathini kengaytirish uchun xizmat qilmoqda.

Sodda fe'l-kesim (das einfache verbale Prädikat) leksik ma'noga ega bo'lgan bir fe'l bilan ifoda etiladi. Bunda sodda fe'l-kesim aniq nisbat (Aktiv) va majhul nisbat (Passiv)ga oid bo'lgan hamma zamon shakllarida ifoda etiladi. Masalan:

Der Lehrer und Luise heben ihre Gläser (Präsens Aktiv);

Er legte sie auch auf den tisch zurück. (Prät. Aktiv);

Er hat „hopp“ gesagt. (Perfekt Passiv);

Frau Fischer hatte gekocht. (Plusq. Aktiv);

Man wird die Frau ausfragen (Futur I Aktiv);

Qo'shma fe'l-kesim (das zusammengesetzte verbale Prädikat) leksik ma'noga ega bo'lgan ikki fe'ldan tashkil topadi. Ulardan biri tuslanadigan shaklda bo'lib, ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Ikkinchisi esa tuslanmaydigan, ya'ni infinitiv shaklda qo'llanib gapning oxirida keladi. Quyida ko'rsatilgan fe'llar qo'shma fe'llarning tuslanadigan qismi sifatida kela oladi:

1. Modal fe'llar: Anton muß vorläufig auch noch die Arbeit des Revierförsters übernehmen. (E.Strittmatter).

2. Modal ma'noni ifoda etadigan - scheinen, wissen, glauben, brauchen, versuchen, verstehen, lassen fe'llari: Eva brauchte gar nichts zu tun. (B.Kellermann). Jankovski versuchte mit der gesunden Hand die dürftige Kleidung abzuschreiben. (B.Apitz)

3. beginnen, anfangen, aufhören, pflegen, bleiben fe'llari infinitiv bilan qo'llanganda, ular qo'shma fe'l-kesimning tuslanadigan qismi hisoblanadi va harakatning boshlanishi, davom etishini, takrorlanishini va oxiriga yetishini ko'rsatadi. Masalan:

Der Leutnant beginnt gebückt vorzuschleichen. (L.Renn)

Mittags hörte es auf zu regnen. (E.Remarque)

4. Haben va sein fe'llarining infinitiv bilan ishlatiladigan konstruktsiaysi qo'shma fe'l – kesim hisoblanadi. Masalan:

Roska hatte viel zu tun und zu denken. Da war vieles zu sehen. (H.Chr. Andersen).

1. O'shanda Olimjon Arslonovning uyini yondirib, xotini bilan qizini somonxonaga qamab o't qo'yib yuborishgan. (Sh.Xolmirzayev. Qil ko'prik, 4)

2. Yo'lda Olimjon Arslonov Qurbondan Eshoni Sudur haqida so'ragan, izoh ham bergan edi. (Sh.Xolmirzayev. Qil ko'prik, 12)

1. Auf den Ausgangspunkt seines Vortrags zurückkommend förderte der Sprecher schärfere Kontrollen zum Schutz der Nature.

Gapning sintaktik shakli fe'l-uyushiq kesim evaziga kengaytirilganda, bog'lovchilardan ham foydalaniladi. Bunda, asosan, teng bog'lovchilar ko'proq qo'llaniladi. Har bir bog'lovchi mazmuniga ko'ra, ikkinchisidan farq qiladi. Ammo gapning sintaktik sathini kengaytiruvchi vosita sifatida ularning barchasining ham salmog'i bir xil:

1. U Nozimani birinchi bor ko'rib turibdi, ammo uning onasi qorasochni bilardi. (Yu.shamsharov. Chiroq, 8)

1. Der alte Herr suchte das Hündchen in allen Straßen und Gärten, aber der alte Herr konnte das Hündchen nirgendwo finden.

Ot-uyushiq kesimlarda bog'lama vazifasida, asosan, bo'lmoq fe'lining turli shakllari, shuningdek, edi, ekan, emish kabi to'siqsiz fe'llar hamda sanaladi, hisoblanadi singari so'zlar qatnashdi:

1. Ularning to'lqini og'ir, salmoqdor va yovuz edi. (Oybek. Quyosh qoraymas, 15)

2. O'g'lim qishloqda brigadir, qizim hisobchi, kuyovim traktorchi edi. (R.Fayziy. Hazrati inson, 335)

3. Sein Vater war ein überzeugter Sozialdemokrat, Mutter die Tochter des Gesundheitsministers.

Ot - kesim (Das nominale Prädikat) fe'l va ot qismidan tashkil topadi. Uning fe'l qismi yordamchi fe'l sein dan yasalgan, bog'lama fe'l (die Kopula) hisoblanib,

ot qismi esa (das Prädikativ) ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh, ravish kabi turkumga oid so'zlar bilan ifodalanadi.

Predikativ eganing belgisini anglatadi. Bog'lama esa ega bilan predikativni bog'laydi. Bog'lama ega bilan shaxsda va sonda moslashadi.

Bog'lama vazifasida sein, warden, bleiben, heißen, scheinen fe'llari qo'llanishi mumkin:

Trotz der frühen Stunde war es schon warm. (W.Schreyer)

Predikativ funksiyasida quyidagi turkumga oid so'zlar kelishi mumkin:

1. Ot (das Substantiv):

a) bosh kelishikdagi ot va otlashgan so'zlar:

Sie waren Offiziere in der cubanischen Armee. (W.Schreyer)

b) qaratqich kelishigidagi ot (das Substantiv im Genitiv):

Meines Bleibens ist nicht länger. (G.E.Lessing)

a) predlogli ot (das Substantiv mit einer Präposition):

Hermann war immer auf der Jagd nach Fröschen. (A.Scharrer). das Mädchen war in der Küche.

Predikativ vazufasidagi ot warden bog'lamasi bilan kelsa, zu predlogi bilan birga ishlatiladi: Der Schnee verkurstete und wurde zu Eis.

1. Sifat. Qiyosiy va orttirma darajada qo'llangan sifat. (O'timli fe'llarning partitsip II (sifatdosh II shakli) - (das Adjektiv im Komparativ oder Superlativ), das Partizip II der transitiven Verben):

Die Mädchen waren zutraulich. Ihr Zimmer war leer und kahl. (H.Kant)

Otto wurde ernster und zugleich heiterer, ausgeschlossener und zusehendes selbstbewußte. (W Bredel)

Der Hof war in Gartenvierecke eingeteilt.

3.Olmosh (das Pronomen):

“das war ich” rief sie.

O'zbek tilida ham kesim qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi:

1) fe'l - kesim;

2) ot - kesim;

O'zbek tilidagi ot – kesimning nemis tilidagi ot-kesimdan farqi shundaki, o'zbek tilidagi ot-kesim bog'lamasiz ham qo'llaniladi. Masalan:

miltiq – qurol (ot – kesim). O'tlar ko'm-ko'k. Suvlar tiniq (sifat-kesim) va boshqalar.

Kesimning ega bilan moslashuvi (Die Konquenz des Pädikats mit dem Subjekt). Nemis tilida bu hodisa kesimning egaga muvofiqlashib, shunga mos shakl olishidir. Kesim ega bilan shaxs va sonda moslashadi:

II. Bob.

2.1. Aniqlovchining uyushib kelishi

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari uyushib kelganda ham, birinchi bobda eslab o'tilgan bir necha mazmun ifodasi berilishi mumkin bo'lgan jumlar yig'indisi fikran anglashiladi. Ammo bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, gapning ikkinchi darajali bo'laklari yo eganing yoki kesimning sintaktik tasarrufida shakllanadi. Bu jarayonda gapning bosh bo'laklari mazmunan to'ldirilishi, aniqlanishi, izohlanishi yoki ish-harakatning bajarilish vaqti, o'rne, holati singari sifatleri ko'rsatiladi. Ikkinchi darajali bo'laklar uyushib kelganda esa axborot butunligi yanada takomillashadi.

Ma'lumki, gapning ikkinchi darajali bo'laklari deganda aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap unsularini tushunamiz. Ularning har biri uyushib kela oladi. Quyida ana shularga to'xtalib o'tamiz.

Aniqlanmish so'z ikki yoki undan ortiq aniqlovchi bilan aniqlanish mumkin. Lekin bunday aniqlovchilarning hammasini ham uyushgan deb bo'lmaydi. Shuning uchun uyushgan aniqlovchilarning quyidagi belgi xususiyatlariga e'tibor berish kerak:

1. Uyushgan aniqlovchi bitta predmetning har xil belgilarini ko'rsatib, bir tomondan aniqlaydi.

2. Uyushgan aniqlovchilar bir turdagi predmetlarning farqli belgilarini ifodalaydi. Bu jarayonda ularning o'zlari aniqlayotgan otga nisbatan bir xil munosabatda bo'lib sanash ohangi yoki teng bog'lovchilar orqali bog'lanadi¹.

Ammo shunga ahamiyatni qaratish kerakki, bir necha aniqlovchilar ma'lum bir otga bog'lanib, uyushmasliklari ham mumkin. Masalan:

Orif aka uning kichkinagina ma'sum yuziga tikilib ko'ngli g'alati bo'lib qoldi. (A.Muxtor. Chinor. 83).

Keltirilgan misolda bir necha otga (yuziga) uchta aniqlovchi (uning; kichkinagina; ma'sum) bog'lanib kelmoqda. Bu aniqlovchilar otning turli

¹ Qarang: Hozirgi o'zbek adabiy tili, II tom. Toshkent. 1960. 180 bet.

jihatlari: qarashlilikini, shaklini, sifatini izohlab kelganligi uchun uyushiq aniqlovchilar sanalmaydi.

Das verspätet angekommenene französische Außenminister wird herzlich begrüßt.

Uyushmagan aniqlovchilar bilan uyushiq aniqlovchilarning mazkur bitiruv malakaviy jih uchun ahamiyatli bo'lgan o'xshash tomonlaridan biri shu bilan xarakterlanadiki, ularning har ikkisi ham gapning sintaktik sathini kengaytiruvchi vositalar hisoblanadi.

Aniqlovchi predmetning belgisini bildiruvchi gap bo'lagidir.

Nemis tilida aniqlovchi predmetning sifatini, rangini, tusini, xususiyatini, mazasini, shaklini, hajmini, miqdor-darajasini yoki nimaga qarashlilikini bildirib, welcher? was für ein? wessen? wieviel? der wievielte? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

Aniqlovchi bog'lanib keladigan so'z yoki ega ikkinchi darajali bo'lak bo'lishi mumkin. Misollar:

Der sonnige Herbst ist vorbei. Es war ein großer Abend. (O.Linder)

„Die lebte Zeit“ – sagte er mit tiefem Gefühl. (T.Mann)

Er hörte sein eigenes Herz.

Aniqlovchi bog'lanib kelgan so'z aniqlanmish hisoblanadi va ikkalasi birlikda aniqlovchili birikmani hosil qiladi. Misollar:

Es war um die neunte Abendstunde. (W.Bredel)

Predmetning belgisini sifatlash yoki izohlash yo'li bilan aniqlanishi mumkin. Odatda aniqlovchilar sifatlovchi va izohlovchi deb ikki turga bo'linib o'rganiladi.

Nemis tilida aniqlovchining bog'lanish yo'li ikki turli bo'lib, biri moslashadigan (das kongruierende Attribut) va ikkinchisi moslashmaydigan (das nicht kongruierende Attribut) aniqlovchi deb yuritiladi.

Moslashadigan aniqlovchi aniqlanmishdan oldin kelib, uning rodi, soni va kelishigi bilan moslashadi. Moslashadigan aniqlovchi quyidagi turkumga oid so'zlar bilan ifodalanishi mumkin:

1) Sifat bilan:

Der kleine Bach vor unserem Haus war verschüttet und bahnte sich seinen Weg über die Straße, über die Höfe.

2) Sifat o'rnida keluvchi olmoshlar bilan:

Unsere Ideale sind gleich. (H.Hauptmann).

Doch diesem Brief war noch einer gefolgt.

3) Partisip (sifatdosh) I yoki II bilan:

So schaute er dreimal in das gegenüberstehende glänzende Goldblatt.

(G.Keller)

Das eingeschlaffene Kind wurde ins Bett gelegt.

4) Tartib son bilan:

Es war das erste Mal.

Moslashmaydigan aniqlovchi aniqlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Ularning ba'zilar aniqlanmishdan oldin kelsa, ba'zilar aniqlanmishdan keyin keladi. Sanoq sonlar va turlanmaydigan aniqlanmishdan oldin keladi. Predlogli ot yoki ravish bilan ifoda etilgan qaratqich kelishikdagi aniqlovchi aniqlanmishdan keyin keladi.

Moslashmaydigan aniqlovchi quyidagi so'zlar bilan ifoda etiladi:

1) Sanoq son bilan:

Für einen Mann von sieben und zwanzig Jahren schlug sein Herz recht jugendlich.

Ba'zi sanoq sonlar aniqlanmishning rod va kelishik bilan moslashadi. Ein, zwei, drei sanoq sonlari shunday sonlardan hisoblanadi. Masalan:

Hier stehen zwei Jungen. Nun traf er einen zweiten Wolf, so heftig in die Seite.

2) Qaratqich kelshigida qo'llanagan ot bilan:

Heißes Wasser hatten sie uns auf die Köpfe geschiddet.

3) Predlogli ot bilan:

Gern hätte er seinen Freund in seinem Alter gehabt.

4) Turlanmaydigan sifatlar bilan:

zweierlei, mancherlei, allerlei, keinerlei, vielerlei, derlei, Leipziger, Samarkander; ganz, halb, voller. Masalan:

Wir kauften nur den Kindern etwas ab, die mit allerlei Früchten angeschwirrt kamen.

5) Ravish (predlogli ravish) bilan:

Eine Weile später trat Hauke herein und warf seinen bunten Vogel auf den Tisch.

6) zu yuklamali infinitiv yoki infinitiv guruhi bilan:

Aniqlovchining bu turi asosan die Meinung, die Pflicht, der Wunsch, die Lust, die Ursache, die Fähigkeit, die Art, die Notwendigkeit, die Möglichkeit, die Kunst va shu kabi otlardan keyin qo'llanadi:

Wie immer hatten sie Lust, ein Wort miteinander zu reden.

7) chet tillardan nemis tiliga kirib kelgan, turlanmaydigan *rosa, lila, prima* kabi sifatlar bilan:

Ein Prima Lehrer.

O'zbek tilida ham aniqlovchilar predmet belgisini ifodalab, *qanday? qanaqa? qaysi? qancha? kimdan? nimadan? qayerdan?* va boshqa so'roqlarga javob bo'ladi. O'zbek tilida aniqlovchi otga bog'lanadi.

1. U otga achchiq-achchiq qamchi bosdi. Besh-olti kishi devorga suyalib bosh egib o'tirishibdi.

Lekin o'zbek tilida aniqlovchining nemis tilidagi kabi o'z aniqlanmishi bilan son, rodi va kelishigida moslashish hodisasi yo'q. Masalan:

Uning ba'zan lo'nda va aqlli gaplarini eshitganda, Elmurod huzur qilar edi.

1. Institut talabalarining ham, maktab o'quvchilarining ham fan olimpiadalari boshlandi. (gazetadan)

2. Jajjigina, chuvakkina shu vujud unga darhol quvvat bag'ishladi. (A.Muxtor. Chinor, 89)

3. Bektemir bu o'qimishli, sodda, ochiq-oydin komandir elatni sevib qoldi. (Oybek. Quyosh qoraymas)

Berilgan misollar shuni ko'rsatadiki, qaratqichli aniqlovchilar ham, sifatlovchi aniqlovchilar ham gap shaklining sintaktik kengayishiga samarali ulush qo'shadi. Fikr isboti uchun berilgan gaplarni anilovchilarsiz tasavvur etaylik.

1. Ali Baba war ein Mann.
2. Drittens muß er ein Leben beginnen.
3. Ich muß zählen.

1. Fan olimpiadalari boshlandi.
2. Shu vujud unga darhol quvvat bag'ishladi.
3. Bektemir komandir elatni sevib qoldi.

Ravshanki, keltirilgan aniqlovchisi gaplar sintaktik nuqtai nazardan anilovchilarga muhtoj emas. Demak, aniqlovchilar eng avval gapga mazmuniy aniqlik kiritadi va shu taxlit gapning sintaktik sathini ham kengaytiradi. Bu narsa ayniqsa anilovchilar uyushiq holda kelganda ko'proq ko'zga tashlanadi.

Ba'zi paytlarda qaratqichli anilovchilar belgisiz, ya'ni –ning, (nemis tiluda esa artiklni va –(e)s) qo'shimchasini ishtirokisiz ham shakllanishi mumkin. Ammo bu hodisa gapning sintaktik shakli kengayishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Hali qancha tonglar, mehnat, qo'shiq, ijod, muhabbat oqshomlari, bahor so'qmoqlari, yo'llar va yellar...

Gapning sintaktik sathi ba'zan sifatlovchi aniqlovchilarning orttirma darajasida kelishi natijasida ham kengayadi:

In Frankfurt lebte der größte deutsche Dichter.

Ikki kun eng qonli, eng zolim janglar qaynadi. (Oybek. Quyosh qoraymas, 70)

Shuni ham aytish kerakki, sifatlovchi aniqlovchilar ko'rsatsih olmoshlari, taqlidiy so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Ammo ularning nima bilan ifodalanganligidan qat'i nazar, har safar bunday vositalar gapning sintaktik shaklini kengayishiga olib keladi. Agar qaratqichli (izohlovchi) yoki sifatlovchi aniqlovchilar sanash ohangi bilan birikkan uyushiq bo'laklarni taqoza qilsa, bunday hollarda gapning sintaktik shakli kengayishi davom ettrilishi mumkin

bo'ladi. Uyushiq aniqlovchilarning oxirgi ikkitasi o'rtasida bog'lovchi ishlatilgan bo'lsa, bunday imkoniyatga chek qo'yiladi.

2.2.To'ldiruvchining uyushib kelishi

To'ldiruvchining uyushib kelishi natijasida gapning sintaktik sathi kengaytirilganda to'ldiruvchining har ikki turi ham bog'lovchi vositasida yoki sanash ohangi ta'sirida uyushiq bo'laklarni tashkil etishi mumkin.

To'ldiruvchi (das Objekt – die Ergänzung) hokim so'z (kesim)ga boshqaruv yo'li bilan birikib, kesimdan anglashilgan harakat, belgi o'ziga yunalgan yoki shu harakatga qandaydir yo'l bilan bog'langan predmetni bildiradi. To'ldiruvchi vosita kelishiklaridan birida yoki predlog bilan (o'zbek tilida – ko'makchi bilan) keladi. Bu ularning tobe bo'laklik belgisidir. To'ldiruvchi hamma fe'l bilan qo'llanmaydi, u faqat ob'yektiv fe'llar (sich nähern, begegnen, schenken va boshqalar) bilan keladi. Misollar:

„Ich wünschte dir einen frohen Tag und gute Gesundheit“ – sagte Johannes wiederwillig.

Du bringst mir eine Nachricht, mein Vater.

Hafiza oq batist ko'ylagini, oq sumka va oq tuflisini kiyib, sochini bitta qilib o'rgan edi.

To'ldiruvchi sintaktik vazifasiga, qanday kelishik va predlog bilan yoki predlogsiz qo'llanishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Tushum kelsihigidagi to'ldiruvchi (das Akkusativobjekt)
2. Jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi (das Dativobjekt)
3. Qaratqich kelishigidagi to'ldiruvchi (das Genitivobjekt)
4. Predlogli to'ldiruvchi (das präpositionale Objekt);

Tushum kelishigidagi to'ldiruvchi (das Akkusativobjekt) *wen? was? kimni? nimani?* so'roqlariga javob bo'lib keladi va o'timli fe'llar bilan boshqariladi.

Masalan:

Walter liebt seine Mutter, Schwester und sein Vater.

Tushum kelishigidagi to'ldiruvchi o'zbek tilida ham tushum kelishigida qo'llanadi va o'timli fe'llar bilan boshqariladi.

Masalan:

Sizni ko'rib akamni ko'rgandek bo'lardim. (S.Ahmad)

Jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchi (das Dativobjekt) jo'nalish kelishigidagi so'z bilan ifodalanadigan to'ldiruvchi harakatning kimga yoki nimaga qaratailganligini, biror predmetning kimga yoki nimaga mo'ljalanganligini anglatib, *wem? (kimga? nimaga?)* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan:

Mir kam ein neuer Gedanke.

Ich folgte ihm zu einer erhöhten Nische.

Qaratqich kelishigidagi to'ldiruvchi (das Genitivobjekt) jo'nalish kelishigidagi to'ldiruvchiga nisbatan kam qo'llanilib, *wessen? (kimning? nimaning?)* so'rog'iga javob bo'lib keladi. Nemis tilida qaratqich kelishigidagi to'ldiruvchini boshqaradigan fe'llar quyidagilar:

1. sich bilan birga ishlatiladigan fe'llar:

sich bedienen, sich erinnern, sich begeben und andere

Masalan:

Er hat sich seines Hrenthums begeben...

Bo'linish, ajralish ma'nolarini anglatadigan ent-, be-, kabi prefiksli fe'llar yolg'iz tushum kelishiklaridan biri bilan ishlatishidan tashqari ba'zi vaqtlarda ular bir vaqtni o'zida ham tushum (Akkusativ) ham qaratqich (Genitiv) kelishiklari bilan birga qo'llana oladi. Bular beleidigen, behindern, beweisen, betreiben, entleeren, entstehen kabi fe'llardan iborat. Masalan:

Man muß die Wahrheit (Akk.) allen Schmuckes (Gen.) entkleiden.

Predlogli to'ldiruvchi (das präpositionale Objekt) nemis tilida keng qo'llanadi. U vosita kelishiklaridan birida qo'llangan ot olmosh va predlog bilan ifoda etiladi. To'ldiruvchining qaysi predlog bilan qo'llanishi fe'lga ba'zan sifatga bog'liqdir. Predlogli to'ldiruvchiga tegishli bo'lgan so'roq so'zlar ma'lum kelishikni talab qiluvchi predlog bilan va shu kelishikning so'roq so'zlaridan tuzilgan bo'ladi. Bu holat jonli predmetlarni bildiruvchi so'zlar bilan ifoda etilgan to'ldiruvchiga tegishli. Masalan:

Am Abend fragte er den Mann seiner Mutter nach Inga. Er wartete sie auf.

Nemis tilida predlogli to'ldiruvchini talab qiliuvchi fe'llarning soni ko'p bo'lgani sababli ulardan namuna sifatida predloglarni ko'rsatib o'tamiz: an + Dativ; an + Akkusativ; auf + Akkusativ; für + Akkusativ; gegen + Akkusativ; mit + Dativ;

Masalan:

Sie zuckte mit den Brauen und Schultern und wurde ganz fahl.

Im Auto überraschte sie mich mit einer Nachricht.

Nach + Dativ, über + Akkusativ, um + Akkusativ, vor + Dativ.

Predlogli to'ldiruvchilar sifat bilan boshqarilishi ham mumkin. Hamma sifatlar predlogli to'ldiruvchini talab qilavermaydi. Ba'zi sifatlar ham predlogli, ham predlogsiz to'ldiruvchini talab qiladi. Masalan:

Dankbar + Dativ yoki für + Akkusativ.

Ich wäre Ihnen sehr dankbar.

Nemis tilida infinitiv yoki zu yuklamali infinitiv guruhi to'ldiruvchi bo'lib kelishi mumkin:

Das Kind lernt lesen.

O'zbek tilida vositali to'ldiruvchi jo'nalish, chiqish, o'rin kelishigi shaklidagi so'zlar va ko'makchili so'zlar bilan ifodalanadi. Bulardan har biri o'ziga xos ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, jo'nalish kelishigi shaklidagi to'ldiruvchi qaratilganlik ma'nosini, chiqish kelishigi shaklidagi ish-harakat o'rnini va chog'ishtirish ma'nolarini bildiradi. Misollar:

Nosirov qizil papkasida qog'ozlardan bir-ikkitasini ko'zdan kechirdi.
(A.Qahhor)

Uyushiq to'ldiruvchilar bog'lovchi vositasida bog'lanib kelishi ham mumkin. Bunda gapning sintaktik shakli takroriy yoki yolg'iz qo'llanuvchi bog'lovchi evaziga ham kengayadi. Yuqorida misollarni olaylik:

Die Kette und mit der anderen den Henkel, yoki mit Kybernetik, mit Mikrophon und einer Skala, bu yerda har ikkala bog'lovchilar orqali sodda gap shakllari to'ldiruvchining uyushishi natijasida kengaymoqda.

Nemis tillarida berilgan misollarda esa ko'makchi har bir to'ldiruvchidan oldin kelmoqda.

Uyushiq to'ldiruvchilar ham gapning sintaktik shaklini kengaytirish bilan bir qatorda, til materilallarining tejalishiga ham sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ularning uyushgan holda gapning kesimi bilan bog'lanishi shu fikr ifodasining bir necha jumla orqali berilishiga monelik qiladi. Qiyoslang:

1. Ich wünsche dir einen frohen Tag, gute Gesundheit und alles Gute.
2. Ich wünsche dir gute Gesundheit.
3. Ich wünsche dir alles Gute.

2.3. Holning uyushib kelishi

Hol uyushib kelganda ham gapning sintaktik shakli kengayishi aksariyat hollarda kesimning sintaktik taasarufi kengayishi natijasida ro'y beradi. Chunki hol o'rni, payti singari ma'nolar ifodasini ko'rsatadi.

Nemis tilida hol harakatning bajarilishidagi turli holatlarini va harakat belgisini harakterlaydi. Hol harakat, holatning qanday bajarilishini, shu bajarilishi bilan bog'langan sabab, maqsad, payt, o'rin, miqdor-daraja kabi ma'nolarni bildiradi. Hol odatda fe'l bilan ifodalangan bo'lakka qarashli bo'ladi. Masalan:

Eines Nachtes wachte Woynok in seiner Baumkrone auf.

Nemis tilida hol asosan ravish, predlogli ot, sifat, infinitiv va infinitiv oborotlar hamda sifatdosh guruhi bilan ifoda etiladi.

O'zbek tilida ham hol ma'no jihatidan asosan quyidagi 9 guruhga bo'linadi:

- 1) Ravish holi (der Adverbialbestimmung der Art und der Weise);
- 2) O'rin holi (der lokale Adverbiale, die Adverbialbestimmung des Ortes);
- 3) Payt holi (das temporale Adverbiale, die Adverbialbestimmung des Zeit);
- 4) Sabab holi (das kausale Adverbiale, die Adverbialbestimmung des Grundes);
- 5) Maqsad holi (das finale Adverbiale, die Adverbialbestimmung des Zweckes);
- 6) Shart holi (das kondionale Adverbiale, die Adverbialbestimmung der Bedingungen);
- 7) To'siqsizlik holi (das konzessive Adverbiale, die Adverbialbestimmung der Einräumung);
- 8) Miqdor-daraja holi (die Adverbialbestimmung des Maßes und des Grades);
- 9) Modal holi (die Adverbialbestimmung der Modalität);

O'zbek tilida ham holning nemis tilidagi kabi turlari bor.

O'rin holi (das lokale Adverbiale, die Adverbialbestimmung des Ortes).

Nemis tilida o'rin holi harakatning paydo bo'lish o'rnini va yo'nalishini bildirib

wo? (qayerda?), wohin? (qayerga?), bis wohin? (qayergacha?) va woher? (qayerdan?) so'roqlariga javob bo'lib keladi.

O'rin holi quyidagi so'zlar bilan ifoda etiladi:

1) O'rin ravishlari bilan:

da, hier, dort, oben, unten, draußen, überall, rechts, links...

Natürlich, sie erzählt es überall herum.

2) Predlogli ravish bilan:

Sie gleiten ab nach rechts und nach links und fegen weiter.

3) Predlogli ot bilan:

Am Ufer sahen wir Fischer.

Qor yog'ar - osmondan oq ukpar tushar.

Payt holi (das temporale Adverbiale, die Adverbialbestimmung der Zeit) harakatning bajarilishi paytini bildirib, wann? seit wann? bis wann? wie lange? kabi so'roqlarga javob bo'lib keladi.

Payt holi quyidagicha tipdagi so'zlar bilan ifoda etiladi:

1) Payt ravishlari damals, immer, heute, lange, morgen, früh, bald, täglich, jetzt, da, manchmal, gestern, abends, nachts, sonntags, montags va boshqalar bilan:

Heute ist mein Geburtstag.

2) Qaratqich kelishigidagi, tushum kelishigidagi predlogli ot bilan:

Er trat eines Abends in die Stunde zu seinem Vater.

3) Sanoq va tartib sonlar bilan:

Am 31. Avgust 1991 proklamierte die staatliche Unabhängigkeit Usbekistans.

O'zbek tilida payt holi ish-harakatning bajarilish paytini, uning chegarasini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri? qayvaqt? kabi so'roqlarga javob bo'lib keladi.

Sabab holi harakatning bajarilish sanasini anglatib, warum? weshalb? weswegen? aus welchem Grunde? so'roqlariga javob bo'lib keladi. Sabab holi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

O'zbek tilida sabab holi ish-harakatning bajarilishi sababini anglatib, nimaga? nima uchun? nima sababdan? kabi so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Maqsad holi ish-harakatning bajarilish maqsadini ifodalab, wofür? wozu? zu welchem Zweck? so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Maqsad holi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

1) Infinitiv va um...zu infinitiv guruhi bilan:

Da ging sie in den Stall, um die Kuh zu melken.

2) zu, für, zwecks kabi predloglar bilan kelgan ot yordamida;

3) wozu, dazu, dafür kabi olmosh-ravishlar bilan:

Dafür will ich bleiben.

O'zbek tilida maqsad holi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, nima uchun? nima maqsadda? kabi so'roqlariga javob bo'lib keladi.

Shart holi ish-harakatning bajarilish shartini bildirib, unter welcher Bedingung? in welchem Fall? so'roqlariga javob bo'lib keladi. Shart holi predlogli ot bilan ifodalanadi.

Mann konnte keine Zukunft haben, ohne Vergangenheit.

To'siqsizlik holi harakatning bajarilishiga to'siq bo'lgan shartni yoki shart-sharoitni va harakarning ushbu holatga qaramay amalga oshishini anglatadi. To'siqsizlik holi wessen unegachtet? trotz welchen Umstände? (nimaga qaramasdan?, qanday sharoitga qaramay?) kabi so'roqlariga javob bo'lib keladi.

To'siqsizlik holi trotz, trotzdem, unegachtet kabi predloglar bilan qo'llanadi: Unegachtet der Ende um ihn drängte er sich zu ihr.

Miqdor-daraja holi harakatning bajarilishini miqdor-daraja jihatidan xarakterlab wie? wie stark? wie sehr? so'roqlariga javob bo'lib keladi.

1. Jangchilar oqargan saharda boshlarini quyi solib jim va tez ketar edilar. (Oybek.Quyosh qoraymas, 89)

2. Hozirgina shoshib-pishib astoydil ishlagan, bo'g'ilib, so'kingan bir necha odam parchalangan, qonga belangan holda abadiy jim bo'lib qoldi. (Oybek. Quyosh qoraynmas, 89)

Uyushiq ravish hollari ko'makchi yordamida shakllanganda ular o'rtasida biriktiruv bog'lovchisi qo'llanadi. Zidlov bog'lovchilar bu xildagi uyushiq bo'laklar o'rtasida ishlatilimaydi;

1. Ming-ming odam qir tepasida zavq va shavq bilan yer chopa ketdi.
(Mirmuhsin. Degrez o'g'li, 39)

2. Darvozabon to'nni ustalik va chaqqonlik bilan ilib oldi.

1. Mit leichten Füßen und mit großen Schritten eilte sie die Treppe hinunter.

O'rin hollarining uyushib kelishi natijasida gapning sintaktik shakli ish-harakatning bajarilish o'rni bilan bog'liq bo'lgan so'zlar orqali kengayadi. Bunda o'rin holi vazifasidagi so'zlar o'rin, jo'nalish va chiqish kelishiklarida beriladi:

1. Oshxona, choyxona, mahalla-kuylarda sayil haqida duv-duv gap.
(J.Sharipov. Xorazm, 185)

1. An allen Fachfakultäten, in allen Instituten, in den Akademien und Industrielabors, in den Führungsgremien des Staates und der gesellschaftlichen Organisationen, in der Armee und an den Kulturstätten wirkten heute Absolventen der Arbeiter und –Bauern Fakultäten.

O'rin holi predlogli ravish bilan ham uyushib kelishi natijasida kengayadi:

1. Sie gleiten ab nach rechts und nach links und fegen wieter. (W.Schreyer)

Uyushiq payt hollari ish-harakatning bajarlkish paytini bildirib kelib, gapning sintaktik shaklini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonda payt ravishlari, -da qo'shimchasini olgan sifatdoshlar va chiqish kelishigining qo'shimchasini –dan bilan qo'llaniladigan so'ng, keyin kabi ko'makchilari orqali ifodalanadi:

1. Ertaga, kechda, kunda va shunda, boringki, yemishimiz xamir edi.
(I.Raxim)

2. Bir vaqt, yoz kuni quyosh tutliganini mushohada etgan edi. (Oybek)

3. Bugun yoki ertaga yomg'ir yog'adiganga o'xshaydi.

1. Frau Judith arbeitet montags und sonntags.
2. So also war das, und er war jeden Abend und jeden Morgen so.
3. Wohl zum zwanzigstenmal erzählte sie diese Geschichte, wie zum erstenmal.

Uyushiq payt hollari ham gapning sintaktik shaklining butunligi uchun muqarrar ravishdagi morfologik vositalar hisoblanmaydi. Ular orqali ko'proq semantik vazifa bajariladi. Biroq gapning sintaktik shakli kengayishi uchun salmoqli hissa qo'shadi.

Uyushiq maqsad hollari mazmuniga ko'ra ish-harakatning bajarilishini bir necha maqsad bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi va odatda, uchun, maqsadida, maqsadi bilan, umidida singari ko'makchili konstruksiyalar orqali ifodalanadi

Uyushiq maqsad hollari ham avvalo gapning mazmuniy salmog'ini kengaytiradi va u orqali sintaktik strukturaning kengayishiga sabab bo'ladi:

1. Asabga tegadigan miskarlikdan, bolg'achalar sadosidan tezroq uzoqlashish uchun ikkala do'st tez-tez yurib, holvagarlar rastasiga burildilar. (S.Abdulla. Mavloni Muqimiy, 86)

2. ...oddiy mehnatkash xalq o'z shoirini qanady hurmat qilishini ko'rsatib qo'yish, shuningdek, shoirning tog'asi mulla Toshmatulloda ham umrbod yurakdan chiqmaydigan armon paydo qilish maqsadida ustoz domla Xalil...maslahati bilan to'yga tayyorgarlik ko'rmoqda edi. (S.Abdulla. Mavloni Muqimiy, 88)

1. Dann ging sie in den Stall, um die Kuh und die Ziegel zu melken.

2. Dann kannst du sicher dort ziemlich schnell für Reise, für Studium und für die Erholung Geld verdienen.

Uyushiq sabab hollari ish-harakatning yuzaga kelishi yoki kelmasligi bir necha sabablar jarayonida gapning sintaktik shakli uyushiq sabab hollari chiqish kelishigi qo'shimchasi va shuningdek sabab ma'nosini ifodalovchi uchun, sababli, tufayli kabi ko'makchilar bilan o'zbek tilida ifodalanadi. Nemis tilida darum, daher, warum va boshqa ravishlar va predlogli otlar orqali gap tarkibiga kirishi bilan kengayadi:

1. La'natilar tinch xalqni osish, uylarini yondirish uchun biron bahona qidiradilar. (Oybek. Quyosh qoraymas)

1. Ich wachte mehrmals von dem Schmerz, von einer Unruhe auf.

Uyushiq miqdor-daraja hollari ish-harakat yoki holatning bajarilishidagi miqdoriy belgilarni ko'rsatadi va gap tarkibiga miqdor-daraja ravishlari hamda o'zbek tilida marta, martalab, nemis tilda esa *höchst, viel, ziemlich, zweimal, völlig* va boshqalar kabilar yordamida kiritiladi:

1. Talabalar bilimlarini test orqali baholash yanada ko'p qo'llanilaveradi. („Zarafshon“ gazetasidan)

2. Ikki, uch, ba'zan to'rt marta bellashgan kunlarimiz ham bo'ldi.

1. Nie werde ich sie vergessen, nie ihren festen Sinn.

Uyushiq miqdor-daraja hollari ham sanash ohangi yordamida munosabatga kirishganda ochiq strukturali bo'ladi va gapning sintaktik shakli kengayishi uchun samarali ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, keltirilgan misollarning oldingisida uyushiq miqdor-daraja hollari orasida va *und* bog'lovchisining qo'llanilishi natijasida ular yopiq strukturali holatga keltirilmoqda. Aks holda, uyushib kelayotgan miqdor-daraja hollarining sonini oshirish mumkin bo'lar edi. Qiyoslang:

...yanada keng, yanada ko'p, yanada samarali qo'llanaveradi.

Berilgan misollarning ikkinchisida esa uyushiq hollar ochiq strukturalidir. Shu sababli ularning sonini istalgancha oshirish imkoniyati bor.

XULOSA

Nemis tilini o'qitishning maqsadlari jamiyat va davlat manfaatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, shuning uchun ham nemis tilini o'qitishga mo'ljallangan o'quv dasturi jamiyat, davlat manfaatlari va talablariga xos kelmog'i hamda javob bermog'i lozim. Mustaqil Respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora o'sib, xalqaro aloqalar, turizm, savdo-sotiq va mamlakatlar o'rtasidagi madaniy hamda iqtisodiy aloqalar rivojlanib borayotgan bir paytda uning kelajagini yaratuvchi yoshlarga nemis tilini puxta o'rgatish va masalalarni erkin muhokama qila olish, umuman og'zaki va yozma shaklda muloqot qila olishni o'rgatish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifalar yaratilayotgan o'quv dasturi va darsliklarda o'z ifodasini topishi zarur. Mamlakatimiz kelajagi uchun 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi qonun ko'rsatmalari juda muhim ahamiyatga ega.

Bitiruv malakaviy ishimizda qalamga olingan sodda gap shaklining sintaktik kengayishi xususidagi muammo mutlaqo yangi deya olmaymiz, ammo bu borada olib borilgan ishlar kam bo'lganligi sababli, nazariy xulosalarimiz ham ba'zi bir masalalar tavsifi bobida munozarali bo'lishi mumkin.

Sodda gapni murakkablashtiruvchi elementlar turlicha: uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, kiritmalar, kirish gaplar, undalmalar hisoblanadi. Bular gapni sodda gap doirasidan chiqarib yubormaydi, balki murakkablashgan sodda gap hosil qiladi. Murakkablashtiruvchi element shu gapning vazifasida keladi va shu gapning bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishgan bo'ladi. Bular uyushiq bo'laklardir.

Sodda gaplarning tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik qurilmalardan biri uyushiq bo'laklardir. Uyushiq bo'laklar o'zining struktural tiplariga ko'ra xilma-xildir. Biz bitiruv malakaviy ishimizda uyushiq bo'laklarning struktural tiplarga xos bo'lgan xususiyatlarini izohlab berishni maqsad qilib olgandik va imkon qadar maqsadimizga erishdik deb hisoblaymiz.

Gapning sintaktik shakli kengayishi murakkablashish jarayoni doirasida vujudga keladi. Sodda gap shakli kengayishida ishtirok etishi mumkin bo'lgan bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushiq kelishini har bir gap bo'lagi, yani ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol doirasida nemis va o'zbek tillaridagi misollar qiyosi asosida talqin qilishga urindik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.Karimov „Ona yurtimiz baxti iqboli buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish eng oliy saodatdir“ Toshkent 2015
1. I.Karimov ”O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent 2011
2. I.Karimov “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish-ustuvor maqsadimizdir” Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 28 yanvar 2010 yil. Xalq so'zi gazetasi № 10.1-3 b
3. I.A.Karimov “Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yuksaltirishdir”. Toshkent “O'zbekiston” 2010 yil 75-bet.
4. I.A.Karimov ”Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch” Toshkent
5. I.A.Karimov ”Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” Toshkent 1995y.
6. I.A.Karimov ”Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari” Toshkent 2009y.
7. T.Z.Mirsoatov Nemis tili grammatikasi. Sintaksis. Toshkent ”O'qituvchi” 1980.
- 8.G'.X.Yaxshiboyev Hozirgi o'zbek tilida sodda gap sintaktik derivasiyasi. Nomzodlik diss. Avtoreferati. Samarqand, 2004
- G'ulomov A, Asqarova M, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent 1987
15. Kasevich V.B. Semantika. Sintaksis. Morfologiya. _M.1985
16. Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. _М. _Л. Наука, 1960.
17. Решетов В.В. “Основы фонетики и грамматика современного узбекского языка ” Tosh. O'qituvchi – 1960.
18. N.Turniyozov, K.Turniyozova, X.Xayrullayev “Struktur sintaksis asoslari” Toshkent Fan – 2009
19. Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A...“Hozirgi o'zbek tili” Toshkent O'qituvchi – 1980
20. Xalq so'zi, 2010 yil 13 noyabr.
21. Xalq so'zi, 2012 yil 19 yanvar.
22. Ma'rifat” gazetasi, 2012 yil 18-fevral, №14 (8455) soni.

23. “Ma’rifat” gazetasi, 2012 yil 22 fevral.

24. O’zbekiston adabiyoti va san’ati. 2011 yil 18 fevral №8 soni

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz
2. www.google.de
3. www.google.uz
4. www.meindeutschbuch.de
5. www.lingo.de
6. <http://www.learn-german-online.net/learning-german-resouces/grammatik.htm>
7. <http://www.daf-portal.de/uebungen/index.php?viewCat=2>
8. <http://www.canoo.net/services/OnlineGrammar/Wort/Ueberblick/index.html>
[lang=de](#)
9. <http://www.deutsch-online.com/modules.php?op=modload&name=News&file=index>